



Toshkent shaharining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi
2026-yil yanvar- may dastlabki ma'lumot

I. Chakana savdo tovar aylanmasi

II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi

IV. Meta ma'lumotlar

V. Aloqador boshqa havolalar.

I. Chakana savdo tovar aylanmasi


2026-yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 14 513 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 236 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 14 277 tani tashkil qildi.

2026- yil yanvar- may oylarida Toshkent shaharining chakana savdo tovar aylanmasi 61 613,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yil yanvar- may oylariga nisbatan 133,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 25 568,7 mlrd.so'mni (o'sish sur'ati 127,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 36 044,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 137,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 113,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 128,3 %) tashkil etdi.

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;


Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/meta-data>



Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va uyushmagan savdo tovar aylanmasi dinamikasi (ulushi foizda)



II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 19 930 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 320 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 19 610 tani tashkil qildi.

Toshkent shahar bo'yicha 2026-yil yanvar- may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 116 365,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 18,4 % ga yetdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 66 646,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,2 % ga to'g'ri keldi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)




Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2762/meta-data>



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Yunusobod (3,7 m.), Bektemir (162,5 %), Mirobod (138,8 %), Sergeli (125,3 %) va Chilonzor (116,3 %) tumanlarida kuzatildi.

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/meta-data>

III. Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi


2026- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 5 875 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 77 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 798 tani tashkil qildi.

2026- yil yanvar- may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 16 031,4 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 15,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 50,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;




Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/meta-data>

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. Meta ma'lumotlar

*Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi-2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.



ichki savdo – yuridik va jismoniy shaxslarning mamlakat ichki bozorida tovar mahsulotlarini sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyati. Bunday savdo ikki toifaga bo'linadi ulgurji va chakana savdo;

ulgurji savdo – tovarlarni chakana sotuvchilarga qayta sotish (o'zgarishsiz sotish), korporativ mijozlar bilan savdo qilish (masalan, sanoat, tijorat, institutsional yoki professional foydalanuvchilar) yoki boshqa ulgurji sotuvchilarga qayta sotish; bunday savdo shaxslar kompaniyalar nomidan tovarlarni sotib olishda yoki ularga tovarlarni sotishda agentlar yoxud brokerlar sifatida harakat qilishni nazarda tutadi;

chakana savdo – tovarlarni sotish kanallaridan qat'iy nazar yangi va foydalanilgan tovarlarni tijorat maqsadlarida foydalanish huquqsiz, asosan, shaxsiy yoki uy iste'moli uchun aholiga qayta sotish (donalab yoki kichik miqdorlarda). Shuningdek, konsignatsiya yoki komissiya asosida sotish bo'yicha komitent nomidan ishlaydigan agentlarning faoliyatini ham o'z ichiga oladi;

IV. Aloqador boshqa havolalar

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/964/table-data>

Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/table-data>

Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/table-data>

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2700/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2701/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2825/table-data>

Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/table-data>

Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2829/table-data>

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i o'rinbosari : B.Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3540)	Ijrochi: B.Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3540)	Manzil: 100000, Toshkent sh. Mirobod t. Amir Temur k. 11-uy;
---	--	--	--